

O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARINI O‘RGANISHDA INNOVATSION METODLARNI QO‘LLASH YO‘LLARI

Zuhra Tosheva

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

O‘tkir Hoshimov XX asrning 60-yillari yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. U yaratgan asarlar jamiyat ma’naviy hayotidagi katta voqea sifatida baholandi.

O‘tkir Hoshimov ijodidan ayrim namunalar umumo’rta ta’lim maktablarida ham mavjud bo’lib, ijodkor asarlarida yashiringan ma’nolarni tuhsunish uchun o’quvchidan yuqori bilim va badiiy did talab qiladi. Biz quyida O‘tkir Hoshimov asarlarini tushunishga yordam beradigan ayrim innovatsion usullar, yondashuvlar haqida to’xtalmoqchimiz.

Ma’lumki, ko’p holatlarda darsliklarda katta hajmli asarlardan parcha beriladi va parcha mutolaasi bilan cheklanish asar xususiyati, sujet va uning tarkibiy qismlari mohiyati, qahramonlar taqdiri, personajlar o’rtasidagi munosabatlarni to’liq tushunishi uchun yetarli emas. Masalan, o’quvchi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” dan parcha o’qishi orqali roman mohiyatini to’laligicha tushunolmasligi mumkin. Shu sababdan o’qituvchi oldindan o’quvchilarni asar mutolaasiga qiziqtirishi va topshiriqlarni taqsimlashi zarur. Zero, tadqiqotlarda badiiy asar mutolaasi quyidagicha amalga oshirilishi belgilangan:

1. Darslarda o’rganilayitgan mavzu bilan chamabarchas bog‘liq majburiy adabiyotni mustaqil o’qish.

2. O’quvchilarning o’zlari yoki o’qituvchi tavsiyasiga ko’ra tanlangan kitobni erkin mutolaa qilish¹.

Birinchi tamoyilga ko’ra, romanning to’liq mutolaasi ikki-uch hafta avval o’quvchilarga topshirilishi zarur. Buningsiz, muammoli tahlilini yo’lga qo’yish mumkin emas.

Roman markazida ikkinchi jahon urushi davri, urush yillaridagi o‘zbek qishlog‘i hayoti tursa-da, voqealar ko‘lami ancha keng. Unda tasvirlangan voqealar ibtidosi o‘tgan asrning 30-yillari kolxozlashtirish davriga oid bo‘lsa, intihosi 70-yillardagi kollektivlashtirish siyosati tufayli ro‘y bergan dahshatli ocharchilik, shuningdek, mudhish shaxsga sig‘inish davri fojialari ko‘rsatilganini e‘tiborga olib, asardan berilgan parchani muammoli o‘qitish asosida o‘rganish va dars texnologiyasini shunga monand loyihalashtirish mumkin.

¹Камбарова С.Мактабда бадий-эстетик тафаккур тарбияси. –Т. Тафаккур, 2012. – 16-б.

Asarni muammoli yo'sinda o'rganish darslarida matndagi asosiy fikrni aniqlash va tahlil qilish, o'quvchilarni izlanishga, fikrlashga majbur etadigan, ularni faollashtiradigan muammoli savollar qo'yish, muammoli vaziyatlarni o'rta tashlashga e'tibor qaratiladi. Lekin bu bilan muammoli o'qitish hal qilinadi, degan xulosa chiqmaydi.

Taniqli metodist olim A.Zunnunov ta'kidlaganidek, "muammoli vaziyat o'quvchilarda asarni bir butun tahlil qilishga istak qo'zg'atadi, tahlil qilishda fikrni faollashtiradi, uzluksiz tahlilni yuzaga keltiradi. ...O'qituvchining o'rta qo'yadigan savolidan tashqari, asar yuzasidan o'quvchilar ham savollar beradilar. Savollar asosida qilinadigan tahlilda o'quvchilar umumiy masalani hal qilishga imkoniyat beradigan yo'lni topishga harakat qiladilar"².

Bunda qo'llaniladigan usullarning uzviy birligi, muntazamliligi sharoitga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'qituvchining ijodiy mahorati va ish uslubiga bog'liqdir. Qo'yiladigan muammoli savollar adabiyotshunoslik xarakterida bo'lib, uning butun murakkab tomonlari va mohiyatini bilib olishini ta'minlashi nazarda tutilmog'i lozim. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarni dunyoni, voqealarni o'zaro aloqada, rivojlanishda anglashgao'rgatadi.

Muammoli tahlil bu – ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Muammoli tahlil uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, qiziqishlari so'nishlari, o'zlariga bo'lgan ishonchlari yo'qolishiga olib keladi. Mazkur metod qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

Muammoli tahlil metodining tuzilmasi quyidagicha:

- muammoli vaziyat tavsifini keltirish;
- guruhlarining muammoli vaziyatning oqibatlari to'g'risida fikr yuritishi;
- muammoli vaziyatning yechimini ishlab chiqishi;
- to'g'ri yechimlarni tanlash.

"Muammoli tahlil" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad-vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

² Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992. – 118-б.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalar taqdimot qilinadi. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qilinadi. Muammoli vaziyatni yechish yo'llari ishlab chiqiladi.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli tahlil” metodining afzalliklari:

–ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

–ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishni o'rganadilar;

– ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun qulay imkoniyat yaratiladi;

– ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

“Muammoli tahlil” metodining kamchiliklari:

– ta'lim oluvchilardan yuqori motivatsiya talab etiladi;

– qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasini mos kelishi kerak.

Ta'kidlash o'rinliki, roman sujeti va kompozitsiyasi nihoyatda mohirlik bilan qurilgan. Asosiy personajlar taqdiri o'zaro murakkab tarzda tutashib ketadi. Har bir qahramon qismatiga urush davri o'z muhrini bosadi. Urush ularni ham jismonan, ham ma'nan og'ir sinovdan o'tkazadi. Mashaqqatli mehnat, yetishmovchiliklar, judoliklarni boshdan kechiradilar.

Kimlardir sinovga dosh beradi, vatanparvarlik, sadoqat, muruvvat tuyg'ularini saqlab qoladi. Kimlardir o'z jonini, halovatini o'ylab pokiza tuyg'ularga xiyonat qiladi. Yozuvchi personajlar qilmishi, qismati tahlili orqali inson hayotining mazmun-mohiyati haqida o'ylashga undaydi. Tahlil davomida o'quvchilar e'tibori shu kabi muammolarga qaratilishi muhim.

Ma'lumki, yozuvchi ikkinchi jahon urushi boshlangan yili dunyoga kelgan. Bolaligishu suronli yillarning jarohatlari hali sirqirab azob berib turgan pallada kechgan, murg'ak qalbdan o'chmas iz qoldirgan. “Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan o'zim gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining ... ruhi bilan ...”³ deb yozadi muallif.

³Hoshimov O'.Tanlangan asarlar. V jild.-T.: “Sharq” , 2012-y. 491-bet.

Kuzatishlarimizdan ma'lumki, aksariyat hollarda yozuvchi umrbayoni va ijodi bir-biridan ayri holda o'rganiladi. Bunday yondashuvda har qaysi asarning o'ziga xos badiiyligi ochilmaydi, muallif uslubi, tarixiylik, adabiy an'analarning davom ettirilishi, asarning adabiyot tarixidagi ahamiyati chetda qoladi. Vaholanki, tahlilda bunday masalalarga e'tibor qaratish muhim o'rin tutadi.

Asarni o'rganishda avtobiografik xarakterdagi "Mashaqqatli safar" (Kitobxon bilan ikki og'iz so'z) nomli adibning umrbayonidan so'zlovchi manba alohida ahamiyat kasb etadi. U yozuvchini kitobxonga yaqinlashtirish vazifasini o'tagan deyish mumkin. Zero, "Dunyoning ishlari" asaridagi ona obrazi yozuvchi ta'kidlaganidek o'zining onasi⁴. Demak, qaysidir qahramon ichki kechinmalari, fe'l-atvori, xarakter xususiyatida ijodkorning ma'lum qiyofasi mavjud.

"Ikki eshik orasi" shakl jihatidan o'ziga xos. Unda jahon adabiyotidagi shakliy-uslubiy izlanishlarning ta'siri seziladi. Roman to'qqiz personajning hikoyasidan iborat. Bu, bir tomondan, ruhiy tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, ayni bir voqeani turli tasavvur hamda taassurot asosida yoritilishi bilan diqqatni tortadi. Har bir hikoya o'ziga xos bayon tarziga ega. Romanni tahlil qilishda chuqur mushohada qilishga undaydigan epizodlarga o'quvchilar diqqatini tortish zarur. Bu borada Q.Husanboyeva to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ta'lim jarayonida ikkita harakatlanuvchi subyekt – o'qituvchi bilan o'quvchining har biri o'z maqsadi yo'lida faoliyat ko'rsatish va ta'lim metodi ularning faoliyat usuli ekan, bu subyektlarning maqsadga erishish yo'llari har xil bo'lishi mumkinligini ham ko'zda tutish mumkin. O'qituvchi faoliyatida yo'naltirish, bilimlarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirishini ta'minlash yetakchilik qiladi. O'quvchining faoliyatida esa o'z-o'zini tarbiyalash, o'qish-o'rganishnin samarali yo'llaridan foydalanish ko'zga tashlanadi"⁵.

Asarni tahlil qilish jarayonida kichkintoy Muzaffar tilidan berilgan bobda shunday kuzatish borligini aniqlash va mushohadaga chorlash yuqoridagi fikrlarning isbotidir:

Bola chumchuqlarni tomosha qilmoqda. "Vuy, inlarning ko'pligini! Bittasi judayam pastda ekan. Do'ppidek inda uchta bolasining boshi ko'rinyapti. Katta chumchuq uchib kelishi bilan uchala bolasi sap-sariq tumshug'ini ochib, baravar chirqillaydi. Hammasiga galma-galdan ovqat beradi. Iye, dadasi ikkita ekan-ku! bittasi uchib ketishi bilan ikkinchisi kelayapti, bolalariga navbat bilan ovqat ulashyapti."⁶

Quyidagicha savollar o'quvchini shu kunga qadar o'ylab ko'rmagan muammolar tahliliga yo'naltirishi mumkin:

⁴ To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalrining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar a'limi muassasalrining o'quvchilari uchun darslik-majmua. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 116-b.

⁵Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. –Т.: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти", 2009. – 64-б.

⁶Hoshimov O'.Tanlangan asarlar. IV jild.-T.: "Sharq", 2012-y. 386-bet

1. Bolaning chumchuq bolalari otasi ikkita deb o‘ylashi sababi nimada?

2. Nima uchun chumchuqning bittasi onasi ekanligini xayoliga ham keltirmaydi?

Gap shundaki, Muzaffarning onasi emizikli go‘dakligida eriga xiyonat qilib, o‘zga kimsa bilan qochib ketgan. Bola esini taniganidan beri oila deganda faqat otasini tushunadi. O‘quvchi bolakayning ma’sum kuzatishi, beg‘ubor taassurotlaridan iboratdek bo‘lib tuyulgan lavha tahlili orqali bir oila fojiasiga guvoh bo‘ladi. Romanda ko‘plab uchragan bunday nozik kuzatishlar, imo-ishoralarnianiqlash va tahlil qilishga undash asnosida ikki tomonlama hamkorlikka zamin yaratiladi.

“Ikki eshik orasi” romanini Gardner nazariyasi asosida o‘rganishda quyidagicha mazmundagi topshiriqlarning ayrimlaridan foydalanishni tavsiya qilish mumkin⁷:

1. Lingvistik zakovatni rivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 1.1. Roman haqida qisqa sujetli axborot tayyorlang.
- 1.2. Asar mazmuni asosida esse yozing.

2. Mantiqiy matematik zakovatnirivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 2.1. Romandagi muammoli vaziyatlarni aniqlab tahlil qiling.
- 2.2. Roman sujeti sxemasini yarating.

3. Jismoniy harakatga asoslangan zakovatni rivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 3.1. Roman boblari mazmuni asosida sahnalashtirilgan ko‘rinishlar yarating.
- 3.2. Qora ammaning kelini ishidan kuyib-yonishlarini harakatlar orqali ko‘rsatib bering.

4. Musiqiyzakovatni rivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 4.1. Robiyaning iztiroblariga monand kuy tanlang.
- 4.2. Muzaffarning bolalik hislariga oid musiqa yarating.

5. Voqelikni tashqi belgilar orqali ko‘rishzakovatini rivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 5.1. Roman g‘oyasi va ruhiga mos rang belgilang.
- 5.2. Qahramonlar ichki dunyosini ranglarda aks ettiring.

6. O‘zaro muloqotga asoslanganzakovatni rivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 6.1.** Qahramonlar o‘rtasidagi nutqni dialoglarda aks ettiring.

7. Intropersonalzakovatni rivojlantirishga oid topshiriqlar:

- 7.1. Roman yuzasidan yozilgan maqolalar bilan tanishing.
- 7.2. Xayolan asar muallifi bilan uchrashing. Unga nimalar xususida murojaat qilgan bo‘lardingiz?

8. Naturalistlar zakovatnirivojlantirishga oid topshiriqlar:

⁷Mirzayeva Z ning “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamidagi “Адабиёт фанларини ўқитишда ўқувчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш. Гарднернинг “Турфа заковатлар” назарияси” maqolasidagi g‘oyalardan foydalanildi.

8.1. Romandan Robiya ichki dunyosiga monand lavhalarni aniqlang.

8.2. Asardagi g'oyani tabiat bilan aloqadorlikda o'rganing.

O'quvchilarning adabiyot haqidagi tasavvurlarini sinfdan tashqari o'qilgan kitoblar orqali kengaytiriladi. Shuning uchun badiiy asarlarni sinfda o'rganish bilan cheklanmay, sinfdan tashqari o'qishni tizimli va maqsadli tarzda yo'lga qo'yish zarur. Sinf dan tashqari o'qishga tavsiya etilgan asarlar qanday o'rganilganini nazorat qilish maqsadida alohida mashg'ulotlar uyushtiriladi.

Mutolaani yo'lga qo'yishda ijodi o'rganilishi rejalashtirilgan adiblarning dasturga kiritilmagan asarlarini sinfdan tashqari o'rganish maqsadga muvofiq. Tadqiqot ishimizning obyekt, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, biz bu faslga "Tushda kechgan umrlar" romanini tanladik.

"Tushda kechgan umrlar" romani 1992-yili bosilib chiqadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yozilgan zamonaviy mavzudagi bu asar xalqimizning yaqin kecmishi, istiqloq arafasi voqeligini aks ettiradi. Romanning eng muhim jihati tanazzulga yuz tutgan jamiyatning chirkin tomonlari ochib tashlangani, soxta g'oyalarning asosi puch ekanligi ro'y-rost ko'rsatilganligi, ushbu g'oyalarga aldanganlar, adashganlar fojiasi ichki bir dard bilan yoritilganligidadir.

Romanni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotning "Diskurs" metodi asosida tashkil etilishi orqali fikr, mulohaza, dunyoqarash, nuqtayi nazarlar zamirida tushunchaga yoxud mantiqqa asoslanib isbotlab berish jarayoni kechadi.

Matnga kiritilgan diskurs yoki diskursiv (mantiqiy fikrlashga asoslangan) jihatlar unga qo'shimcha ma'no yoki mazmun bag'ishlamaydi, balki o'zaro kesishib, bir-birining ta'sirini kuchsizlantiradi.

Diskurs (lotincha "discursus" – 'nutq, fikr-mulohaza, dalil-isbot, suhbat') – bu nutq orqali bildirilgan fikr va mulohazalarning ijtimoiy jihatdan bog'langanligini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan tushuncha.

Ushbu atama bilan bevosita o'quvchi yoki tinglovchiga yo'naltirilgan ilmiy, falsafiy yoxud boshqa muhim konsepsiyalar belgilanadi. Diskurs so'z va ma'no, belgi va mazmun, bilim va uning so'z orqali ifodasining birligini anglatadi. Bu birlik faqat odamlar o'rtasidagi aloqa, munosabat, suhbat jarayonida muayyan ma'no kasb etadi. Bundan tashqari, o'zaro harakatlanayotgan, bir-biriga ta'sir o'tkazayotgan ijtimoiy va siyosiy subyektlarning har xil pozitsiya, dastur, g'oya yoxud mafkuralarini asoslash, taqqoslash, muhokama qilishga qaratilgan nutqiy kommunikatsiya ko'rinishlaridan biridir.

Asar markazida navqiron yigit Rustam obrazi turadi. Ko'ngli ezgu orzu-umidlarga to'la, jamiyatga chin dildan halol xizmat qilish orzusida bo'lgan bu yigit o'z joniga qasd qiladi.

O'tkir Hoshimov "Tushda kechgan umrlar" romani bilan birinchilardan bo'lib yaqin tarixning sharmandali sahifalaridan bo'lmish afg'on urushi manzaralarini adabiyotga olib kiradi.

Bahs-munozaralarda yozuvchi ana shu fojiani badiiy tahlil qilish barobarida butun bir tuzum yuzidagi niqobni olib tashlaganini o'quvchilar hukmiga havola qilish maqsadga muvofiq.

Rustamni fojiga yetaklagan omillar nima?

Rustamning fojia tomon qo'ygan birinchi qadami ana shu urushdagi ishtiroki edi. Haqiqatparast, ta'sirchan yigit urushning dahshatli voqeligiga o'zi guvoh bo'ladi. G'ayriinsoniy mohiyatini, bunda qandaydir adolatsizlik borligini his qiladi, lekin qanday chora ko'rishni bilmaydi, iztirob ichida qovriladi.

O'quvchilarga romanda bu keskin holat nihoyatda ta'sirli ko'rsatilganini topishga yo'naltirish, fikrlariga matndan misollar keltirishlarini so'rash lozim. Masalan:

Rustamning afg'on kundaligidan bir lavha: "Zum o'tmay vayrona ostonasidan nimcha kiygan, ammo ishtonsiz, bir yarim yoshlardagi o'g'il bola ko'rindi... Bola hamon yig'laganicha o'z tilida g'ujur-g'ujur qilib, itga ergashdi. Oyoqlang tuproq kechib, alpang-talpan yurgan ko'yi ayol tepasiga keldi... Ayolning yoniga cho'kkaladi-da, yosh to'la ko'zlari bilan g'udranib kuldi. Tuproqqa belangan qo'lchalari bilan onasining mammasini changallaganicha ema boshladi. Birpas emdi-da, ilkis boshini ko'tardi. Hayron bo'lib, goh onasiga, goh itga, goh menga mo'ltirardi. Og'zini kappa-kappa ochib, chirqillab yig'lab yubordi. Go'dakning og'zidan so'lak aralash qon oqar edi.

...Avval ich-ichimdan titroq keldi. Keyin qo'llarimning barmoqlari muzlayotganini his qildim. Undan keyin oyoqlarim qaltiray boshladi. Tankka qanday yetib bordim, esimda yo'q.

– Otaman! – dedim o'kirib. – Hammangni otaman! O'zimniyam otaman"⁸.

Rustam urushdan tanida va qalbida jarohatlar bilan qaytadi.

Ustiga-ustak uning uyiga, "tinch hayot"ga qayishi millatimizning yaqin kechmishidagi yana bir mudhish hodisa – "o'zbek ishi" kechayotgan pallaga to'g'ri keladi. Rustamning halol, bir umr vatan yo'lida mehnat qilgan otasi qo'shib yozishda ayblanib qamaladi. Otasining musibati, akasining tergov jarayonidagi xo'rlik va haqoratlar haqidagi hikoyalari uning dardiga dard bo'lib qo'shiladi.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizim har qadamda yosh yigit oldiga yangidan-yangi to'siqlar qo'yaveradi. U e'zozlagan adolat, haqiqat tuyg'ulariga putur yetaveradi. Bularning ustiga jismoniy jarohati qo'shilib uning oilaviy baxti ham

⁸ Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. V jild..-T.: "Sharq", 2012-y.505-506-betlar.

zavolga yuz tutadi. Ishongan, e'tiqod qo'ygan tuyg'ulari poymol bo'lgan mudhish ko'rgiliklariga chiday olmasdan o'zini-o'zi nobud qiladi.

Roman istiqlol arafasida jamiyatdagi ma'naviy, iqtisodiy, ruhiy tanazzul, millat boshidan kechgan achchiq kunlar, "tilining uchidagi" dardlari g'oyat haqqoniy gavdalantirilganligi bilan qimmatlidir. Yigitlarning harbiy ko'rikdan o'tishi, talabalarning paxta dalalaridagi kechmishlari bormi, o'zbek to'yidagi qo'shnilarning janjali, davlat idoralaridagi ma'muriy-buyruqbozlik, poraxo'rlik, nohaqliklar bormi – barchasida tasvir haqqoniylik tamoyiliga asoslanadi.

Adabiy tanqidchilikda romandagi salbiy qahramon Soat G'aniyev obrazi yozuvchining badiiy yutug'i sifatida baholangan. Bir qarashda Soat G'aniyev yovuzlik timsolidek taassuroq qoldiradi. Muallifning o'zi ham shunga ishora qiladi. Rustam tilidan uni "Yovuz ruh" deb ataydi.

Soat G'aniyev sobiq tuzumning ashaddiy himoyachisi, sodiq "soldati". Undagi ko'r-ko'rona e'tiqod juda yoshligidan, oilasida shakllangan. Keyinchalik u ashaddiy ijrochiga aylangan. Qatag'on yillarida ko'plab halol insonlarning boshiga yetgan. Tinchlik yillarida ham o'sha davrni qo'msab, odamlarni siyosiy xato topishdan huzurlangan.

U insonlarni "o'zimiznikilar" va "dushmanlar"ga ajratadi. "Dushmanlar"ga nisbatan har qanday shafqatsizlikdan qaytmaydi. O'z qilmishlarini esa tabiiy deb hisoblaydi. Necha-necha kishilarning hayotiga zomin bo'ladi. Jumladan, Rustamning ham hayotini ham ma'lum darajada zaharlaydi.